



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MULTEMEDIA
VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK
IMKONIYATLARI VA DOLZARBLIGI

Ko'chkinova Mahliyo Norbutayevna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o'qituvchisi

Elektron pochta manzili: mkuchkinova@dtpi.uz

Tel: (99) 711-17-68

Abdullayeva Dilnoza Farxodovna

Azizova Zarnigor Ismatullo Qizi

Babashova Nazira Pulatovna

“Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari

Elektron pochta manzili: abdullayeva@mail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim va tarbiyani amalga oshirishda multimedia vositalaridan foydalanishning pedagogik va psixologik imkoniyatlari hamda o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: faoliyat, multimedia, savodxonlik, natija, axborot, innovatsiya, texnologiya, kompyuter, zamonaviy yondashuv, animatsiya.

Kirish. Hozirgi kunda barkamol avlodni tarbiyalash, yosh avlodning intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularni har tomonlama rivojlangan shaxs etib voyaga yetkazish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Asosan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning yuksak bilim egalashida multimedia ta'limi ham muhim o'rinda turadi. Multimedia ta'limi orqali biz bolalarda milliy qadriyatlarni video rolik shaklida jonlantirishimiz ham mumkun. Ta'lim sohasida ham yangi axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, an'anaviy o'qitish usullariga nisbatan samarali va yuqori natijalarga olib kelmoqda.



Hozirda ta'lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari ta'lim jarayonining muhim negizi bo'lib, yoshlarning yangi axborotlarga bo'lgan talablarini qondirishga xizmat qilmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya olayotgan katta va maktabga tayyorlov guruhlarida aynan 5–7 yoshli bolalar tarbiyalanadi. Ulardagi intellektual salohiyatni shakllantirishning boshlang'ich davri ham xuddi shu yoshdan boshlanadi.

Aynan shu sababli hozirgi kunda maktabgacha ta'limda multimedia ta'limiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Barkamol avlodni voyaga yetkazishda zamonaviy o'qitish metodlari, innovatsion texnologiyalar, multimedia vositalarining o'rni va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahorati va pedagog tajriba bilan bir qatorda, interfaol metodlar, multimedia vositalari barkamol avlodni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Asosiy qism. Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini multimedia vositalari asosida tashkil etishga alohida ahamiyat berilyapti. Multimedia vositalariga, birinchi navbatda, elektron darsliklar, kompakt disklar, video-audio tasmlar, turli taqdimotlar kiradi. MTTda multimedia texnologiyasidan foydalanishdagi masalalardan yana biri ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish metodikasini ishlab chiqish, unga mos ishlanmalar yaratish hamda amaliyotga joriy qilish zarurligidir. Multimedia ta'lim vositasining afzaliklari qanday va biz multimedia ta'limni qanday qilib maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'llashimiz mumkin degan savol paydo bo'lishi tabiiydir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimediani turli xil mashg'ulotlarda qo'llash mumkin. Masalan, tabiat bilan tanishtirishda, elementar matematik ta'savurlarini shakllantirishda hamda xorijiy tilda mashg'ulotlarini tashkil etishda multimedia vositalari yuqori natijalar beradi. Mashg'ulot jarayoni bolalarni zeriktirib qo'ymaydi va ularni mashg'ulotga bo'lgan qiziqishlarini yanada ham ko'proq oshirishda keng imkoniyatlarni yaratib beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimediani qo'llashdan ko'zlangan maqsad bolalarga qisqa vaqt ichida ko'proq va samarali ta'lim berishdan iboratdir.¹

¹ Atamurodova Q. G. Factors and means of individual spiritual development //ACADEMICIA: An International



Hozirgi vaqtda bolalarning kompyuter va gadjetlarga qiziqishlari juda yuqori. Shu tufayli pedagoglar ulardan to'g'ri va unumli foydalanib, bolalarni yo'naltirish, qiziqishlaridan kelib chiqan holda ta'lim tashkil etilsa, bolalarning qiziqishlari yanada ham ortadi. Masalan, bolalarga multimedia ta'limidan foydalanib ularga til o'rgatish mashg'ulotlarni qiziqarli qilib tashkil etish mumkin. Ayniqsa, turli ranglardan foydalangan holda bolalarning ta'savuri kengaytirib, ularning diqqatini tortish, ularning tilga bo'lgan qiziqishlarini yanada ortirish mumkin. Jumladan, bolalarda fasllar to'grisida tasavvurlarini shakllantirishda qo'l keladi. Bolalarda bahor fasli haqidagi tushunchalarni shakllantirishda bahor faslini ko'rsatish bilan birgalikda undagi yashilik, daraxtlar va gularning rangi, bahor faslida nishonlanadigan bayramlarni havola qilish imkoniyati mavjud. Maktabgacha ta'lim tashkilotkarida tayyorlov guruhida multimediali mashg'ulotlarni olib borish maktabga tayyorlash jarayonida tasavvurlarini boyitadi, ularning talim faoliyati to'g'risidagi tasavvurlarini shakllantiradi natijada ta'lim jarayonidagi qiyinchiliklarni yengib o'tishlari uchun zamin tayyorlaydi, shu bilan birga bolalarning inovatsion texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmasi multimedia ta'limini tashkil qilish orqali shakllantirib boriladi.

Shuningdek, multimedia ta'limidan zamonaviy, inovatsion ta'limning bir shakli sifatida mashg'ulotlar jarayonida to'g'ri foydalanish maktabgacha ta'limda faoliyat olib borayotgan tarbiyachilarning ham inovatsion texnologiyalardan foydalanish bo'yicha ko'nikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Multimedia va gipermedia texnologiyalari kuchli taqsimlangan ta'lim resurslarini birlashtiradi, ular bolani idroki shakllanishi va namoyon bo'lishi uchun muhitni ta'minlaydi. Multimedia va telekommunikatsiya texnologiyalari tizimda prinsipial jihatdan yangi uslubiy yondashuvlarni ochadi. Multimedia - zamonaviy texnik va dasturiy vositalardan foydalangan holda interaktiv dasturiy ta'minot nazorati ostida vizual va audio effektlarning o'zaro ta'siri, ular matn, ovoz, grafik, fotosuratlar, videolarni bitta raqamli tasvirda birlashtiradi.²



Kompyuter o'yinlari tarbiyalanuvchilarning ushbu qiziquvchanlik xususiyatini

oshiradi. Natijada, ularning aqliy rivojlanishi shakllana boradi. Multimediali kompyuter o'yinlari tarbiyalanuvchilarning qiziquvchanlik xususiyatini oshirishi quyidagilar asosida namoyon bo'ladi:

1) ekranda ko'rsatiladigan o'yin obyektiga animasiya samarasi berilgan bo'lishi

va ular doimiy ravishda harakatlanib, jilolanib turishida;

2) tovushda;

3) musiqada;

4) animatsiyada;

5) multifikasiyada;

O'yin davomidagi ushbu "kompyuterli" psixologik-pedagogik ta'sirlar yosh bolalarning faqat qiziquvchanlik xususiyatini oshiribgina qolmasdan, balki bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini ham oshiradi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ma'lum bo'ldiki, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyasini shakllanishida axborot texnologiyalari ya'ni, multimedialardan foydalanishningb pedagogic imkoniyatlari bolaning rivojlanish taraqqiyotidagi asosiy masalalaridan biri hisoblanadi.

Multimedia vositalarini ta'limda qo'llash orqali quyidagi pedagogik - psixologik imkoniyatlar tizimi yaratiladi.³

- ta'limning gumanizatsiyalashuvini ta'minlash;
- o'quv jarayonining samaradorligini oshirish;
- tarbiyalanuvchilarning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish

(o'zlashtirganlik, bilimga chanqoqlik, mustaqil ta'lim olish, o'zini o'zi tarbiyalash,

o'zini o'zi kamol toptirishga qaratilgan qobiliyatlilik, ijodiy qobiliyatlari,

³ Ko'chkinova Makhliyo Norbutayevna, & Ravshanov Muhammad G'afur o'g'li. (2021). THE ROLE OF INCLUSIVE EDUCATION IN THE LIVES OF CHILDREN WITH DISABILITIES. European Scholar Journal, 2(6), 193-194. Retrieved from <https://scholarzest.com/index.php/esj/articl>.



olgan bilimlarini amaliyotga qo'llay olishi, o'rganishga bo'lgan qiziqishi, mehnatga bo'lgan munosabati);

- tarbiyalanuvchilarning kommunikativ va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

- kompyuter vositalari va axborot elektron ta'lim resurslari yordamida har bir shaxsning alohida (individual) ta'lim olishi hisobiga ochiq va masofaviy ta'limni individuallashtirish va differensiyalash imkoniyatlari sezilarli darajada kengayadi;

- tarbiyalanuvchiga faol bilim oluvchi sub'yekt sifatida qarash, uning qadr-qimmatini tan olish;

- tarbiyalanuvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish;

Xulosa. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hayotimizga, ta'lim tizimiga, jumladan, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga ham faol kirib kelmoqda. Pedagog va maktabgacha ta'lim muassasalari mutaxassislarining ushbu texnologiyalarga qiziqishi ortib bormoqda va ulardan o'z kasbiy faoliyatida foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda. Zamonaviy bola tug'ilgandan boshlab boy media muhiti bilan o'ralgan. Elektron o'yinchoqlar, o'yin pristavkalari, kompyuterlar maktabgacha yoshdagi bolalarning bo'sh vaqtlarida tobora ortib borayotgan o'rinni egallab, ularning psixofizik fazilatlarini shakllantirish va shaxsiyat rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Maktabgacha ta'lim muassasasining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida "gi PQ528-sonli qarori.
2. Z.T.Nishonova,G.Kalimova,A.G'.Turg'unboyeva,M.X.Asranboyeva "Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi" Toshkent 2017-yil 80-82 bet
3. Jalilova S.X. "Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi" «Faylasuflar» nashriyoti Toshkent – 2017 138-167 bet
4. Qodirova.F, Toshpolatovna. Sh, Kayumova. N, A'zamova. M – "Maktabgacha pedagogika" Toshkent- 2019
5. tayeva. N, Salayeva.M, Hasanov. S – "Umumiy Pedagogika"- Toshkent -2013

A



6.

K

o'chkinova M. N., qizi Rahmonova D. I., qizi Rahmonova M. S. BO 'LAJAK O'QITUVCHI KASBIY TAYYORGARLIGIGA DOIR ETIKET QOIDALARINI TARKIB TOPTIRISHDA MULOQOTNING O 'RNI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 14. – C. 778-783

7.

A

tamurodova Q. G. Factors and means of individual spiritual development //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 6. – C. 771-774

8. Achilov, O. M., Kochkinova, M. N., & Kamolova, O. M. Q. (2021). THE IMPORTANCE OF ECONOMIC EDUCATION IN PRESCHOOL CHILDREN. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(06), 137-140

9. Achilov O. M., Kochkinova M. N., Kamolova O. M. Q. THE IMPORTANCE OF ECONOMIC EDUCATION IN PRESCHOOL CHILDREN //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2021. – T. 2. – №. 06. – C. 137-140

10. Ismatov S. et al. O'QUVCHI YOSHLAR TARBIYASIDA DINIY EKSTRIMIZM VA TERRORIZM TAHDIDI VA ULARNI BARTARAF ETISHNING MAVJUD SHAROITLARI //PEDAGOG. – 2023. – T. 6. – №. 2. – C. 443-447

11. Ismatov S. et al. O'QUVCHI YOSHLAR TARBIYASIDA DINIY EKSTRIMIZM VA TERRORIZM TAHDIDI VA ULARNI BARTARAF ETISHNING MAVJUD SHAROITLARI //PEDAGOG. – 2023. – T. 6. – №. 2. – C. 443-447

12. Ko'chkinova M. KASBIY ETIKET QOIDALARINING TAKOMILLASHUVIDA PEDAGOGIK MAHORAT VA O 'QITUVCHI KOMPETENSIYALARINING AHAMIYATI //" Science Shine" International scientific journal. – 2024. – T. 16. – №. 1

13. Ko'charova D., Ko'chkinova M. XURSHID DO 'STMUHAMMAD NASRIDA DIDAKTIK TAMOYILLAR //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 703-707



14. Ko'charova D., Ko'chkinova M. ABDULLA QODIRIYNING OBRAZ YARATISH MAHORATI //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 714-716
15. Ko'chkinova Makhliyo Norbutayevna, & Ravshanov Muhammad G'afur o'g'li. (2021). THE ROLE OF INCLUSIVE EDUCATION IN THE LIVES OF CHILDREN WITH DISABILITIES. European Scholar Journal, 2(6), 193-194. Retrieved from <https://scholarzest.com/index.php/esj/articl>.
16. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, M.A'zamova "Maktabgacha pedagogika - T.: Ma'naviyat 2019 y.
17. Kayumova N. "Maktabgacha pedagogika". TDPU nashriyoti T.: 2013 y. 14b
18. Qayumova N.M. "Maktabgacha pedagogika" TDPU nashriyoti -T.: 2017 y.